

JIZZAX SUV OMBORI KIRIM SUVLARI HAJMINING YIL ICHIDA OYLIK, FASLIY VA YILLARARO TAQSIMLANISHI

Pirimova Sarafroz Kamolovna

“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot universiteti
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti assistenti
E-mail: raxmatilloevafarangiz@gmail.com

Shodiyorov Husan Ravshan o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot universiteti
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Jizzax suv omboriga kirayotgan suv sarfiga bog‘liq holatda oqim hajmini yil ichida oylik, fasliy va yillararo tebranish miqdorini grafik ko‘rinishda tasvirlashga bag‘ishlangan. Ishni amalga oshirishda shu mazmundagi adabiyotlar tahlil qilindi va Jizzax suv omboriga kirayotgan oylik o‘rtacha suv sarfi miqdori ma’lumotlardan foydalanildi. Natijada 12 yillik ma’lumotlar qayta ishlanib, oqim hajmi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Jizzax suv ombori, kanal, daryo vodiysi, gidrotexnika inshoot, maksimal balandlik, oqim hajmi, rekonstruksiya, suv ombor, suv sarfi, to‘g‘on;

MONTHLY, SEASONAL AND INTER-YEAR DISTRIBUTION OF THE VOLUME OF INLET WATERS OF JIZZAKH RESERVOIR DURING THE YEAR

ANNOTATSIYA

This article is devoted to graphically describe monthly, seasonal and interannual fluctuations of the water flow in the Jizzakh reservoir depending on the consumption of water. In the implementation of the work, the relevant literature was analyzed and the data on the average monthly water consumption entering the Jizzakh reservoir was used. As a result, 12 years of data were processed and the flow volume was determined.

Keywords: Jizzakh reservoir, canal, river valley, hydraulic structure, maximum height, flow volume, reconstruction, reservoir, water consumption, dam,

KIRISH

Jizzax suv ombori Respublikamizda joylashgan quyilma suv omborlaridan biri bo'lib, Sangzor daryosidan kanal orqali suv oladi. Suv omborining qurulishi 1963-1973 yillarni o'z ichiga oladi. Jizzax suv ombori to'lig'icha 1973 yil 27-dekabrda foydalanishga topshirildi. Suv bilan qoplangan maydon $13,75 \text{ km}^2$ ni tashkil etadi. Loyiha bo'yicha 8,9 ming gektar sug'oriladigan yerlarni suv bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Baliq mahsulotini yetishtirish va rekreatsiya maqsadlarida foydalanilmaydi. Jizzax suv ombori joylashgan hududning yozi issiq, qishi iliq bo'lib, o'rtacha yillik havo harorati $+14,1^\circ\text{C}$ daraja bo'ladi. Yoz mavsumida havoning maksimal harorati $+46^\circ\text{C}$ darajani, iyul oyida o'rtacha $26,9^\circ\text{C}$ darajani va qish davrida havoning minimum harorati -32°C darajani tashkil etadi. O'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 370-380 mm ni tashkil etadi. Yog'ingarchilik asosan noyabr-aprel oylarida kuzatiladi. Eng ko'p yog'ingarchilik davri mart-aprel oylariga to'g'ri keladi. Yillik o'rtacha bug'lanish 937 mm ni tashkil etadi.

ASOSIY QISM

Suv omborlari zahirasidagi suvni tejab, samarali ishlatish lozim. Ayniqsa, bizning mintaqamizda, ya'ni g'alla va paxta ekiladigan maydonlarda sug'orish ishlari deyarli yil davomida olib boriladi. Buning uchun suv omboridan berilayotgan suv ustidan qattiq nazorat qilish kerak. Bunga har yili, yilning boshida suv omborini ishlatishning dispetcherlik grafigini tuzish yo'li bilan erishish mumkin. Grafikni tuzishda suv omborining ta'minlovchi daryodagi suv oqimini, suv omboridagi yil boshigacha yig'ilgan suv hajmi va hisobiy yilda iste'molchilarga suv yetkazish rejasini hisobga olish kerak. Dastlab suv omborining ta'minlovchi daryo bo'yicha 20-30 yillik gidrologik kuzatuv ma'lumotlari asosida suv oqimining o'zgarishi o'rganib chiqiladi va shu yillar ichidan suv ko'p bo'lgan, o'rtacha va kam suvlilari topiladi. Jizzax suv omboriga suv keltiruvchi kanal Sangzor daryosidagi gidrouzeldan boshlanadi. Kanalning suv o'tkazish qobiliyati 50 m/s uzunligi 8,4 km IIK 0 dan IIK 60 gacha beton qoplamalar bilan mustahkamlangan. Kanal suv ombori bilan tezoqar sharshara orqali birlashgan. Suv keltiruvchi kanalning gidravlik parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Jizzax suv omboriga suv keltiruvchi kanalning gidravlik parametrlari

№	Kanal parametrlari	Betonli qismida	Tuproq o'zanli qismida
1	Uzunligi, km	6,0	2,4
2	O'zan tagining kengligi, m	2,5	5,0
3	Qirg'oq qiyaligi	1:1,5	1:1,5
4	Tubining nishabligi	0,0065-0,024	0,0005


Biz ishimizda ko‘zlangan maqsaddan og‘ishmagan holda Jizzax suv omboriga kirayotgan o‘rtacha suv sarfining 10 yillik ma‘lumotlari qayta ishlanib oqim hajmining yil ichida o‘rtacha oylik, fasliy va yillararo tebranish grafiklarini chizdik. Hisoblash ishlarini quyidagi formula asosida amalga oshirdik.

$$W = 86400 \cdot Q \cdot T \quad (1)$$


bu yerda: Q-o‘rtacha oylik suv sarfi, m³/s; T-oydagi kunlar soni, 86400-bir kundagi sekundlar soni. Hisoblash ishlarimiz natijalarini jadvalda aks ettirdik (2-jadval).

Oylar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Q, m ³ /s	43,6	44,4	22,3	54	14,1	34,2	39,2	24,7	24,8	13,7	25,8	53,5
W, 10 ⁶ m ³	116,8	107,5	59,8	139,9	37,8	88,6	105	66,2	64,2	36,7	66,8	143,4


Ishimizning keying bosqichida 2-jadval ma‘lumotlari asosida Jizzax suv omboriga kiradigan oqim hajmining yil ichida oylar, fasliy taqsimlanish grafiklari chizildi (1,2-grafiklar).



1-grafik. Jizzax suv omboriga kiradigan oqim hajmining yil ichida oylar bo‘yicha taqsimlanish grafigi, 10⁶m³



2-grafik. Jizzax suv omboriga kiradigan oqim hajmining fasllar bo‘yicha taqsimlanishi, 10⁶m³, %;



4-grafik. Jizzax suv omboriga kiradigan oqim hajmining yillararo tebranish grafigi, 10⁶m³

NATIJA

Yuqorida keltirilgan jadval va grafiklardan keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi natijalarni keltirishimiz mumkin.

1. Jizzax suv omboriga kirimdagi o'rtacha suv sarfi $32,8 \text{ m}^3/\text{s}$ ni tashkil etdi.
2. Suv omborga o'rtacha bir yilda oqim hajmi $1032,7 \cdot 10^6 \text{ m}^3$ tashkil etadi.
3. Tadqiqot obyektimizga kirib kelayotgan suvning 36 % qish, 16 % kuz, 25 % yoz, 23 % bahor fasllarida kirib kelishi aniqlandi.
4. Jizzax suv omboriga kiradigan oqim hajmining yillararo tebranish grafigi chizilganida $771,6-2094,8 \cdot 10^6 \text{ m}^3$ hajm oraliqlarida suv kirishi aniqlandi.

XULOSA

Respublikamizdagi aksariyat daryolar qishloq xo'jaligining suvga bo'lgan ehtiyoji ortgan vaqtda to'lin suv davrini o'tkizgan bo'ladi. Bunday daryolar Respublikadagi deyarli barcha daryolarga xos. Aynan shuning uchun suv omborlar qurilib daryo oqimi tartibga solingan. Shunday suv omborlardan biri bo'lgan Jizzax suv omboridir. Jizzax suv omboriga kirayotgan suv sarfiga bog'liq holda oqim hajmini hisobladik. Suv omborga bir yilda o'rtacha $1032,7 \cdot 10^6 \text{ m}^3$ oqim hajmida suv kirib keladi. Suv omborga kirib kelayotgan suvning ko'p qismi qish fasliga to'g'ri keladi. Suv omboriga kirayotgan oqim hajmini bilgan holda undagi foydali hajmini ham aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Baqoyev M.R., Kaveshnikov N., Tursunov T. Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish. Toshkent, 2008.- 452 b.
2. Gapparov F.A., Sodiqov A.X. Suv omborlarini texnikaviy eksplutatsiyasi bo'yicha na'munaviy yo'riqnama. Toshkent, 2007. – 75 b.

3. Gapparov F.A. Suv omborlaridagi inshootlar texnik holatini kuzatish va baholashni oʻtkazish boʻyicha qoʻllanma. Toshkent, 2012. – 94 b..
4. Пиримова Сарафроз Камол қизи, Ҳалимова Гулшан Субҳоновна. (2023). ҚУЛЖУҚТОВ ТИЗМАСИНИНГ ЖАНУБИЙ ЁНБАҒИРЛАРИДА АТМОСФЕРА ЁҒИНЛАРИНИНГ БАЛАНДЛИК БЎЙИЧА ЎЗГАРИШИ. GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION GʻOYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI II XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA. 607-611
5. Pirimova S. K. Distribution of Atmospheric Precipitation During the Year by Months and Seasons (Example of Bukhara Region) //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 19. – C. 44-49.
6. Shokirova, M., & Sulaymonova, M. (2023). EKOLOGIK XAVFSIZLIKNING HUQUQIY-TAʼLIMIY ASOSLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 637–640. Retrieved from
6. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/5735>